

ABDULLA QAHHORNING “TOMOSHABOG’” HIKOYASIDA HAJVIY
TANQID UNSURLARI

Shamsiyeva Huriyat Qulmurod qizi

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Qahhorning “Tomoshabog’” hikoyasi asosida hajviy tanqid va uning unsurlari, ijtimoiy loqaydlik muammosi tahlil qilinadi. Asarning badiiy va g‘oyaviy, satirik xususiyatlari misollar vositasida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: hajviyot, Tomoshabog’, hikoya, tanqid, unsur,

O‘zbek adabiyotida hajviyot jamiyat hayotidagi ijtimoiy va ma’naviy muammolarni tanqidiy ruhda yoritishda muhim estetik vosita hisoblanadi. XX asr o‘zbek nasrida bu yo‘nalish rivojida Abdulla Qahhor ijodi alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi hajv orqali jamiyatdagi loqaydlik, riyo, soxtalik va mas’uliyatsizlik kabi illatlarni badiiy jihatdan fosh etgan. Bu holatlar yozuvchi tomonidan chuqur tahlil qilinadi va jamiyatdagi mavjud illatlarni o‘quvchiga tanitadi. Shuningdek, bu qahramonlarning xulq-atvori o‘quvchi tafakkurini uyg‘otish va ijtimoiy ongni rivojlantirishga xizmat qiladi. Asar tarkibidagi vaziyatlar zamonaviy jamiyat uchun ham ahamiyatlidir va ularni umumlashtirish orqali yanada keng tahlil imkoniyati yuzaga keladi.

“Tomoshabog’” hikoyasida jamiyat a’zolarining voqelikka tomoshabin sifatida munosabatda bo‘lishi hajviy tarzda ochib beriladi. Asarda faol hayotiy pozitsiyadan chekinish jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi omil sifatida talqin etiladi. Bu holat yozuvchi tomonidan chuqur tahlil qilinadi va jamiyatdagi mavjud illatlarni o‘quvchiga ko‘rsatadi. Shuningdek, bu qahramonlarning xulq-atvori o‘quvchi tafakkurini uyg‘otish va ijtimoiy ongni rivojlantirishga xizmat qiladi. Hajviy asar tarkibidagi vaziyatlar zamonaviy jamiyat uchun ham ahamiyatlidir va ularni umumlashtirish orqali yanada keng tahlil imkoniyati yuzaga keladi. Hikoyada hajv ochiq kulgi emas, balki yashirin kinoya orqali namoyon bo‘ladi. Qahramonlarning befarqligi o‘quvchini tanqidiy fikrlashga undaydi. Bu holat yozuvchi tomonidan chuqur tahlil qilinadi va jamiyatdagi mavjud illatlarni o‘quvchiga tanitadi. Shuningdek, bu qahramonlarning xulq-atvori o‘quvchi tafakkurini uyg‘otish va ijtimoiy ongni rivojlantirishga xizmat qiladi. Abdulla Qahhorning “Tomoshabog’” hikoyasida qahramonlar shunchaki ism va familiyaga ega shaxslar emas, balki muayyan ijtimoiy qatlamning va illatlarning tipiklashgan vakillaridir. Yozuvchi ularni tasvirlashda “psixologik portret” usulidan ko‘ra, “xatti-harakat va nutq tahlili” usulidan ko‘proq foydalanadi.

Hikoyadagi asosiy obrazlardan niri Hamroqul (qadaqchi) hikoyadagi tizimning bir bo‘lagi bo‘lib uning asosiy xususiyati – shaklbozlik. U shunchaki qahramon emas, balki davrning mafkuraviy tazyiqqa uchragan, oddiy bir shaxs emas, balki jamiyatda ko‘p uchraydigan tip darajasiga ko‘tarilgan obrazdir. Bog‘bon (Usta kulol) obrazi esa, siyosatdan norozi lekin rahbarning buyruqlarini so‘zsiz bajaruvchi, o‘z ishi mohiyatini tushunsa-da,

indamaydigan ijrochi qatlam vakilini ifodalaydi. Bog‘bon – insoniylik jihatdan Hamroqulga yordam qo‘lini cho‘zadi. Uning qiyofasida hayot uqubatlari va turg‘unlik mavjud. U – tizimning kichik, lekin muhim bo‘lagi bo‘lib, xatto o‘z taqdiri ham qiziqtirmas edi

Hikoyada voqealarga chetdan qaraydigan obrazlar shunchaki kuzatuvchi rolini o‘ynaydi. Ular bog‘dagi “tomosha”ni (ya‘ni hamyurtlarini mirshablar olib ketayotganda ham hech kim sababini so‘ramaydi) ham loqaydlik bilan kuzatishadi. Ularning obrazi orqali muallif jamiyatning bu kabi illatlarga nisbatan befarqligini yoki chorasizligini ko‘rsatadi. “Tomoshabog‘” sarlavhasining o‘zi ham aynan shu qahramonlar va vaziyatga ishora qiladi: O‘lkadagi voqealarga munosabat bildirmaydiganlar, shunchaki “tomosha” (ko‘rgazma) uchun qo‘yilgandek. Abdulla Qahhorning bu hikoyasida hajviy tanqid unsurlari quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

Nutq orqali: Bog‘bonni mirshablar olib ketayotganda qayerdandir Usta kulolning kampiri paydo bo‘lib ofitserning oyog‘iga yiqildi. Ikki mirshab Usta kulol va Hamroqulni bog‘dan olib chiqdi va Butxonaning narigi tarafidagi mirshabxonaga olib ketdi. Kampir dodlagancha ularga ergashib bordi. Olomon to‘plandi.

– “Yig‘lama!”, - dedi Usta kulol mirshabxonaning eshigi yonida kampiriga qarab: – “Men bir zindondan ikkinchisiga o‘tayotibman nega yig‘laysan!” [A.Qahhor. Hikoyalar to‘plami]

Ziddiyat orqali: “Ey, bus-butun ayolati vayron o‘lon Vatan,

Har go‘shasi zamonada zindon o‘lon Vatan”

“Ramuzot” [A.Qahhor. Hikoyalar to‘plami]

Hikoyadagi epigrafdagi yozuvchi kinoya orqali ayanchli taqdirlarni juda chiroyli ochib bera olgan. Asar tarkibidagi vaziyatlar zamonaviy jamiyat uchun ham ahamiyatlidir va ularni umumlashtirish orqali yanada keng tahlil imkoniyati yuzaga keladi. Asardagi obrazlar tipik xarakterga ega bo‘lib, jamiyatdagi umumiy illatlarning badiiy timsolidir.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor hajviyasi o‘zbek adabiyotidagi realistlik an‘analarni yangi bosqichga ko‘tardi. Uning “Tomoshabog‘” hikoyasidagi hajv talqini – bu shunchaki adabiy uslub yoki yo‘nalish emas, balki haqiqatni hajviyot orqali qaror toptirishning mukammal namunasidir. Yozuvchi asarda shunchaki oddiy voqeani bayon etish bilan cheklanmaydi, balki hajv orqali jamiyatning ma‘naviy-axloqiy qiyofasidagi kamchiliklarni (ko‘zbo‘yamachilik) ko‘rsatib beradi. “Tomoshabog‘” – bu shunchaki bog‘ emas, balki e‘tiborsizlik va loqaydlik hukm surayotgan ijtimoiy makonning ramzidir. Qahhor hajviyasi “tashqi kulgi”dan “ichki fojia”ga qarab boradi. Asar qahramonlarining mantiqsiz xatti-harakatlari va balandparvoz so‘zlari ularning ma‘naviy qashshoqligini fosh etuvchi asos sifatida xizmat qilgan. “Tomoshabog‘” hikoyasi hajv orqali jamiyatni uyg‘otishga qaratilgan muhim asar bo‘lib, bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

1. Qahhor A. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. 1-jild: Hikoyalar va qissalar. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. – 195 b.
2. Qahhor A. Tomoshabog‘ (Hikoyalar to‘plami). – Toshkent: Sharq, 2012. – 180 b.
3. Qahhor A. asarlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 450 b.
4. Qo‘shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. Monografiya. – Toshkent: Fan, 1988. – 216 b.
5. Normatov U. Qahhor mahorati (Ilmiy-tanqidiy maqolalar to‘plami). – Toshkent: adabiyot va san’at, 2007. – 190 b.